



BOLALAR ONGIDA TAFAKKUR TUSHUNCHASINING AHAMIYATI

Abduqahhorova Durdona

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10934446>

Annotatsiya: Maqolada bolalarda tafakkurning rivojlanishi va uning bolalar psixologiyasiga ta'siri haqida so'z boradi.

Kalitso'zlar ;tafakkur,bola,analiz ,sintez,intelekt ,kreativlik,diqqat,xotira.

Tafakkur insonga qaysidir yoshda yoki qaysidir davrda tuhfa etilmaydi. U bola tug'ilgandayoq u bilan birgalikda dunyoga keladi. Keyinchalik bola bilan birgalikda rivojlanadi va murakkablashadi. Katta yoshli insonga nisbatan kichik yoshdagi bolalarda tafakkur tushunchasi biroz rangliroq. Ya'ni ularda fantasia ko'lamini keng, tushunchalar real voqealardan ko'ra ko'proq biroz bo'rttirishlar asosiga quriladi. Bularning hammasi tafakkurning hosilalari hisoblanadi. Tafakkur tushunchasini ilmiy tomondan izohlasak nazariy ma'lumotlar talaygina. Bolalar ham o'smirlik davrigacha dunyoga boshqacha ko'z bilan qaraydilar. Ya'ni ularda analiz va sintez jarayonlari ba'zi jihatdan osonroq qaysidir jabhalarni anglash esa qiyinroq kechadi. Olamni anglashda bolalarga ularning ota-onalari ko'maklashishi lozim. Ayniqsa ona tomonidan bu ish samarali amalga oshirilishi ehtimoldan yiroq emas. Chunki otalardan ko'ra bola tarbiyasida onaning roli kattaroq. Atrofda bo'lyotgan voqea-hodisalar bolalarning tafakkurida ko'rgazmali-obrazli shaklda namoyon bo'ladi. Ular bunda voqea yoki qaysidir shaxsni o'ziga notanish bo'lgan so'zlar orqali emas, balki ko'z o'ngida gavdalantirish asosida eslab qolishadi. Kichik yoshdagi bolalarda mulohazalardan ko'ra obrazlar ko'proq bo'ladi.

Bolalar ongida tafakkur tushunchasining ahamiyati

Ularning tafakkurida so'z ikkinchi darajali vositaga aylanadi. Misol uchun professor B.C.Muxina; „ Bolalarda so'zlarda tushuntirishdan ko'ra harakatlar orqali izohlash osonroq deb ta'kidlagan. Ya'ni ularga buzilgan o'yinchoqni tuzatish uchun bersangiz ular tuzatish jarayonini faqatgina ko'rsatib beroladilar. So'zlashga kelganda birmuncha qiynaladilar. Lekin 5 yoshdagi bolalarda nutq boyligi tez sur'atlarda o'sadi. Qiziquvchanlik ham shuncha rivojlanadi. Buniularning bizga berayotgan turfa xil savollaridan bilib olishimiz lozim. Biz shu narsani unutmasligimiz zarurki, bolalar berayotgan savollarga iloji boricha to'g'ri javob berishga harakat qilishimiz kerak. Chunki javobsiz qolgan savollar natijasida bolalar ongida qiziqish susaya boshlaydi. Bolalarning tafakkurining rivojlanishi uchun ota-onalar mas'ul shaxslardir. Turli xil foydali o'yinlar, sog'lomlashtirish mashqlari va atrofda voqealarni to'g'ri tahlil qilib berish, bundan tashqari ularning tafakkurida obrazlarni jonlantirish uchun turli



ertaklar hamda ibratli hikoyalar aytib berish bolalar ongida tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Biz bolalarga hayotning faqat oq tomonini emas, kezi kelganda qora tomonini ya'ni ba'zi haqiqatlarni ham o'rgatishimiz shu bilan birgalikda ularni o'rab turgan olam faqatgina oq –qora emas balki turfa ranglardan iborat ekanligini tushuntirishimiz lozim.

Tafakkur tushunchasi bilan birgalikda bolalarda intellect va kreativlik degan tushunchalar ham bor. Ular doimo yonma yon keladi. Sababi bu tushunchalar bir biriga o'zaro bog'liq. Ba'zida biz shunday bolalarni ko'rishimiz mumkinki, ularning fikrlash, tafakkur qilish darajalari hatto ba'zi katta yoshdagi odamlarni ham aqlini shoshirib qo'yadi. Aynan ularda aql bilan bog'liq jarayonlar yaxshi rivojlangan bo'ladi. Intellectbu- idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, insonlar bilan so'zlashish va shu kabi holatlardir. Bolalarda bunday tushunchalarning rivojlanishida nafaqat oila balki jamiyat ham o'z hissasini qo'shadi. Lekin bunday intellektlar bolalarda turlicha shakllangan, kimdadir yuqori darajada kimdadir quyi darajada. Kreativlik ham huddi shunday, beshta bolaga yashil rangdagi plastilinni berilsa, ular bu rangdan o'z tafakkuridagi predmetlarni yasaydilar. Yani ularning tafakkurida nima yashil bo'lsa shuni amaliyotga tadbiiq etadilar. Kreativlik va intellect bolalarda shundayligicha rivojlanmaydi. Uni paydo bo'lishiga irsiyat va nasl –nasab ham bog'liq. Agar ota-onalar yoki qarindoshlaridan kimdadir kreativlik yoki aqliy jarayonlar yuqori bo'lsa ularning farzandlari ham ruhan ham jismonan barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi. Chunki ularning keying voyaga yetish davrida ham aynan mana shu tushunchalar ularni rivojlantiradi.

Tafakkur haqida turli olimlar turlicha fikr bildirganlar. Masalan nemis faylasufi Martin Xaydegerning fikricha,, Tafakkur mavjudligining asosiy hislati bu tasavvurdir " deydi. Faylasufning fikricha,, Tafakkur bor, chunki insonlar tasavvur qilishyapti" demoqchi. Menimcha bu fikrga hech bir inson raddiya bildirgan olmaydi. Chunki tafakkurlar natijasida tasavvurlar vujudga keladi. Aynan bu holat yosh bolalarda katta yoshli insonlarga nisbatan qiziqarliroq kechadi. Bolalar tafakkurida buvijonlari tomonidan aytilgan ibratli ertaklarning qahramonlarini aynan mana shu tasavvurlar orqali gavdalandirishadi. Ertak qahramonlarining yaxshi yoki yomon fazilatlarining analiz va sintez jarayonlaridan so'ng ularda umumiy tasavvur xulosasi kelib chiqadi. Ota – onalar farzandlarining tasavvurlarini shakllantirishda ehtiyotkor bo'lishlari kerak. Birgina harakat yoki birga voqea sababli bolalarning tasavvurida qora dog'lar paydo bo'ladi. Bundan tashqari jamiyatda bolalarga nisbatan,, Sen jim o'tir, gapga ko'p aralashma, sen nimani ham bilar



eding"degan jumalarni eshitib qolamiz. Aslida bu gaplar xato. Mashhur olmon adibi Romen Rollan ta'kidlashicha :,, Tafakkurni o'ldirgan odam uch karra qotildir "degan edi. Biz ham extiyot bo'lishimiz lozim. Zero bolalar tafakkurining qotili bo'lib qolmaylik. Bolalar psixologiyasida tafakkur ,tasavvur ,diqqat hamda xotira degan tushunchalar doimo yonma yon keladi. Sababi bu jarayonlar bir biri bilan o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi. Biz bolalar psixologiyasida jarayonlarda tafakkurni birinchi o'ringa ,ikkinchi bosqichga diqqatni qaratishni va keying bosqichga ko'rilgan hamda diqqat qilingan hodisani eslab qolishi ya'ni xotirasiga muhrlashini qo'yishimiz mumkin. Diqqat inson faoliyatining barcha turlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning va ularning samaradorligini ta'minlovchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Diqqatning asosiy tamoyili bu fikrni bir nuqtaga jamlash va uni idora etishdir. Katta yoshdagi insonlarda hayotiy tajribalar talaygina bo'lganligi sababli va ularning miya faoliyati bolalarnikidan yaxshiroq rivojlanganligi sababli ularda diqqatni jamlash osonroq. Ammo bolalarda yoshlik davrlarini ma'lum bir davrlarga ajratadigan bo'lsak, ilk bolalik davrida ularning diqqat ko'lami anchagina beqaror bo'ladi. Bolalarga hamma narsa yangilik bo'lib tuyulaveradi. Biror hodisaga diqqatini qaratib ,tezlik bilan yana boshqa jarayonga ko'chib o'tishi oson bo'ladi. Masalan N.M.Menchinskayaning ta'kidlashicha : Birorta bolaga Echki bolalari haqida ertak aytyapsiz, voqealar rivoji bo'ri kelib eshikni taqillatadi degan joyiga keladi. Bola taqqillash ovozig qiziqib xona eshigini taqqillatib ko'radi. Bolada diqqatning hali yaxshi rivojlanmaganligi sababli u ertak eshitshni unutib butun e'tiborini eshikni taqqillatishga qaratadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda esa bu jarayon ozroq murakkablashadi. Nafaqat bog'cha sharoitida ,balki oila davrasida ham o'z namoyishini ko'rsatadi. Biror mashg'ulotga e'tibor berishi yoki birorta o'yinni uzoqroq o'ynashi ham aynan mana shu diqqatni tobora barqarorlashyotganini ko'rsatadi. Maktab yoshidagi bolalarda diqqatning turlari ya'ni ixtiyoriy ,ixtiyorsiz va ixtiyordan keyingi turlari anchagina taraqqiy etgan bo'ladi. Bog'chada dars mashg'ulotlari o'n besh daqiqaga borsa , maktab dars mashg'ulotlarining vaqti qirq daqiqani tashkil etadi. Bu vaqtning barchasida diqqat bir nuqtaga jalb etilmasada ,tamomila tarqab ham ketmaydi. Tafakkur qilayotgan jarayonlariga yetarli darajada diqqat-e'tiborini qaratoladi. Bola ko'rib tafakkur qilgan narsasiga diqqatini qaratadi va so'ngida eslab qoladi. Ko'pchilik bir narsani inkor etolmaydiki, katta yoshli insonlarga nisbatan bolalarda xotiraning tezligi hamda uning kerakli paytda qayta ishga solinishi anchagina osonroq.



Bolalarda xotira turlari har xil rivojlangan bo'ladi. Yodlash, saqlash, esga tushirish va unutish kabi jarayonlar kimdadir passiv, kimdadir esa aktivroq. Misol uchun bog'chada bolalarga tarbiyachi tomonidan she'r o'rgatilsa hammasi uchun bir xil takrorlatilgan she'ni qaysidir bola qolganlariga nisbatan tezroq yodida saqlab qoladi. Mashhur olim E.S. Rapatsevich: Ushlab turish xotirada o'rganilgan, ya'ni miyyadagi iz va bog'lanishlarning saqlanishidir degan. Olimning fikricha materialning bola tafakkurida rol o'ynashi hamda xotiraga saqlanishi, uni bu jarayonda qay darajada ishtirok etishiga bog'liq. Shu sababli bolalarga nimanidir o'rgatayotgan paytda ko'rgazmali qurollardan ko'p foydalanishadi. Bundan tashqari tafakkur etilayotgan narsalarni esda saqlash uchun K.D. Ushinskiy quydagicha ta'rif keltirgan: Agar siz bolaning xotirasiga nimanidir mahkamlab qo'ymoqchi bo'lsangiz uning barcha sezgi a'zolarini ishga soling, ya'ni ko'rish, eshitish hatto ta'm va hid bilishgacha. Demak yoshlik paytida bolaning xotirasi ustida qanchalik ko'p ishlansa maktab davrida bu o'zining ijobiy samarasini albatta beradi. Ta'kidlab o'tish joizki, keyinchalik xotiraga mahkamlangan mana shu taasurotlar bolaning tafakkur qilish imkoniyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Bu xotiraning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ya'ni yaxshi xotira yoki yomon xotira. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, bolaning kelajak hayotida qanday jarayonlarga tayyorligi va bu holatlarni qay tarzda boshidan kechirishi uning yoshlik paytidan qolgan mana shunday psixologik jarayonlar bilan o'zaro uzviy bog'liqdir.

Adabiyotlar:

1. Najmiddinova, Rahimova Feruza. "" GENERAL PEDAGOGY" SCIENCE PRIORITY DIRECTIONS OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1365-1369.
2. Раҳимова, Феруза Нажиддиновна. "Мультимедиа воситаларининг ижтимоий педагогик фаолиятга таъсир этувчи педагогик-психологик омиллари." Academic research in educational sciences 3. NUU Conference 2 (2022): 879-884.
3. Rakhimova, Feruza. "Model of Developing Communicative and Didactic Competence among Future Teachers." Eastern European Scientific Journal 1 (2019).
4. Mamadzhanova, Khushruy. "Psychological and Pedagogical Training of Children for School Readiness: A Comprehensive Approach." HOLDERS OF REASON 4.1 (2024): 13-23.